Xayrullayeva Nigora Jamolxonovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali magistranti

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA GENDER MADANIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7936962

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tengligi tarixi, mazmuni va hususiyatlari hamda maktab o‘quvchilarida gender madaniyatini rivojlantirish, tarbiyalash zarurati haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, oila, gender madaniyati, ta’lim

KIRISH

Gender tengligini singdirish tizimli yondashuv va uzoq muddatni talab qiladigan jarayon. Uni ta’limning faqatgina ma’lum bir qismida yoki faqatgina oila instituti orqali singdirish mumkin emas. Shuning uchun ham ijtimoiy ongda gender bilan bog‘liq sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda oila -mahalla-ta’lim tizimining o‘zaro hamkorligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Dastavval, gender tengligini ta’minlashda oila institutining roliga to‘xtalib o‘tsak. Hech kimga sir emas, oila inson tarbiyasida eng asosiy rol o‘ynaydi, bola oilada tug‘iladi, ulg‘ayadi, olam haqidagi tasavvurlari unda shakllanadi, dastlabki axloqiy qoidalarni o‘zlashtiradi. Oilada insonning his-tuyg‘ulari tarbiyalanadi, olam, unda insonlarning o‘rni haqidagi qarashlari paydo bo‘ladi. Xuddi shu davrda bola ongida gender stereotiplar ham shakllanishni boshlaydi. Bu stereotiplarning shakllanishida bolaga jinsiga qarab qanday kiyim kiydirish, sochini turmak qilish, mashina yoki qo‘g‘irchoq olib berish kabi bolaning ilk go‘daklik davridagi kattalarning qarorlari va xatti-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida bunday gender stereotiplarning inson ongida mavjudligi va xatti harakatlarida aks etishi jamiyat, oilaning katta vakillari tomonidan qo‘llab quvvatlanadi. Ovqat pishirishga taqlid qilib o‘tirgan o‘g‘il bola yoki mashinalar rasmini chizishga qiziqadigan qiz bola kattalar tomonidan tanbeh olishi mumkin. Chunki gender stereotiplar ijtimoiy ongda chuqur o‘rin egallagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gender tenglik g‘oyasi XX asrning oxirgi un yilliklarida to‘liq shakllandi, u turli davr va ijtimoiy-madaniy sharoitda xar xil ma’naviy-ahloqiy talablar asosida o‘zgarib turgan ijtimoiy-madaniy jarayon ekanligi anglanildi. Gender madaniyatini shakllantirishda eng muhim pedagogik xulosalardan biri, yeshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalash ishlarida oila, maktab, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye, internet)ning roli ahamiyatlidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning inson xuquqlari, erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan siyosati ana shu ijtimoiy farqlarni yumshatishga, iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida ularga teng imkoniyatlar yaratishga gender tenglik g‘oyasini shakllantirishga qaratilgandir. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterda ekanligi muhim tamoyil sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda yoshlarni gender tenglik, tolerantlik, insonparvarlik ruhida

tarbiyalash hozirgi davrning dolzarb pedagogik muammosidir. U davlat ahamiyatiga molik ma'naviy-axlqiy, xuquqiy siyosiy tarbiya asosidir. Yoshlarni gender tengligi g'oyasi asosida tarbiyalash, uning mazmun-mohiyati, vazifalarini ilmiy-nazariy hamda pedagogik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Gender tenglik tarbiya tizimi nihoyatda keng qamrovlidir. Maqsadli disputlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, tematik ma'ruzalar, seminar-treninglar, nazariy-amaliy konferensiyalar ham ushbu yo'nalish rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalashning eng muhim ahamiyati ularni, birinchi galda, qiz bolalarni o'zligini anglashiga, ijtimoiy muhitni,ijtimoiy ruhiyatni, ichki uyushtiruvchi, xarakatga keltiruvchi va yetaklovchi, inson qadr-qimmatining jinsiga sarab belgilanmasligini isbotlovchi kuchga aylanishiga xizmat qilishidir.

Bu xolda gender tenglik g'oyasi (o'g'il va qiz bolalarga teng huquq hamda teng imkoniyatlar yaratish) shaxsning ham, jamiyatning ham ma'naviy yuksalishiga ta'sir qiladi, insonlarini anglashga, ijtimoiy tafakkurning o'zgarishiga olib keladi. Gender tenglik g'oyasi jamiyatda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga, ma'naviy-ruhiy jihatdan tenglik tamoyillarini o'ziga singdirishga undovchi va uni xarakatga keltiruvchi bunyodkor g'oyadir.

Jamiyat hayotida chuqur o'rin olgan gender notenglik (jinsiga qarab ustunlik belgilash; bu yerda o'g'il bolalar maqomining, «men»ining qiz bolalar makomidan va «men»idan yuqorida turishi) shaxs taraqqiyotiga, o'sishiga g'ov bo'lmoqda.

Qiz bolalarning inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida o'z kuchlarini sinashga, salohiyat va qobilyatlariga tayanib qaysidir bir murakkab sohani egallashga intilishlarini cheklaydi, ba'zi hollarda, umuman, imkon bermaydi. Gender tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yoshlar xulq-atvorining, dunyoqarashining ijtimoiy foydali, adolatli, insonparvar, demokratik sifatlarini shakllantirish ishiga yordam berishi shubhasiz. Chunki gender tenglik g'oyalari bilan sug'orilgan ta'lim-tarbiya yoshlarda gender bilimlarni hosil qilishi, ularning dunyoqarashiga va e'tiqodiga aylanib borishi, ruhiyatiga ta'sir etishi mumkin.

Bu, ayniqsa, qiz bolalarning mas'uliyat va qat'iyatlik, qiziqish bilan o'zlari istagan sohalarni o'rganishlariga intilishlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganib, ular ongida jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida faoliyat ko'rsata olishlariga ishonch hosil qilish mumkin. Bu esa ularda tegishli ma'naviy ahloqiy sifatlar bilan bir qatorda, Vatanga muhabbat, uning yuksakligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shishga ishonch tuyg'usini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Shuning uchun xam ta'lim jarayonida gender tarbiyaning imkoniyatlaridan izchil foydalanish yoshlarni barkamol shaxs sifatida kamol toptirishda katta rol uynaydi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan va ushbu sohadagi izlanishlarimiz natijalaridan quyidagi hulosani ifodalash mumkin:

- maktabda yoshlarni gender tenglik ruxida tarbiyalashning pedagogik tizimi, uni ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish mazmuni nazariy jihatdan ishlab chiqilishi lozim;

- ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda gender tenglik madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari o'ganilishi, taxlil qilinishi va yaratilishi lozim;

- ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda gender madaniyatini shakllantirish uchun izchillik, ilmiylik, tushunarlilik, ishonarlilik, nazariya va amaliyot birligi tamoyillariga ahamiyat berilishi kerak;

- gender madaniyatli barkamol shaxsni shakllantirishga doir darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, axborot-ko'rgazmali materiallar yaratish va uni ta'lim jarayoniga kiritish lozim;

- barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga gender nazariyasini singdirish shakl, usul va vositalarini yaratish;

- yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida gender tenglik goyalariga ishonishni kuchaytiruvchi, shakllantiruvchi innovasion texnologiyalarning jahon tajribasi isbotlagan metod va usullarni o'rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amaliyotga joriy etish lozim;

- ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda gender madaniyatning shakllanganlik monitoringini olib borish va ular natijalari asosida mazkur yo'nalishni rivojlantirish;

- pedagogika yunalishidagi ta'lim tizimida gender nazariyasi va amaliyotidan maxsus kurslar joriy kilish;

- ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida gender nazariyasi va amaliyotining gender madaniyatli yetuk inson tarbiyalashdagi ahamiyatini xisobga olib respublika va viloyat malaka oshirish institutlarida maxsus kurslar o'tish maqsadga muvofiqdir va shu kabilar kiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan dalillarning barchasi o'quvchilarda gender yondashuv asosida "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirish, ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuvga tayanish, ushbu yondashuv doirasida o'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy lashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish kabi muammolarning echimi alohida dolzarblik kasb etayotganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hofstede G. Masculinity and Femininity: The taboo dimension of national cultures, 1998. SAGE Publications Inc. 238 p.

2. Гидденс Энтони. Социология. 1999 - 704с.

3. Тожибоева Х.М. "Гендер ёндашув асосида ўсмир ёшдаги ўқувчиларда "оммавий маданият"га қарши иммунитетни шакллантиришнинг педагогик стратегиялари" // Монография. – Тошкент: "Tafakkur qanoti" нашриёти, 2021. – 208 бет.

Хайруллаева Нигора Джамолхановна
Аспирант Наманганского филиала
Ташкентского международного химического университета

ГЕНДЕРНАЯ КУЛЬТУРА И ПРИНЦИПЫ ЕЕ ФОРМИРОВАНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Абстрактный. В данной статье рассказывается об истории, содержании и особенностях гендерного равенства, а также о необходимости развития и воспитания гендерной культуры среди школьников.

Ключевые слова: гендерное равенство, семья, гендерная культура, образование.